

## ALLERGIYANI TABIIY YO'LLAR BILAN DAVOLASH USULLARI

**Mamadaliyev Boburjon***Central Asian Medical University talabasi, Farg'ona.***Tel:** +998 88 828 34 35*E-mail:* bekmamadaliyev038@gmail.com**Ilmiy rahbar: Nasiriddinov Mavlonjon Ziyomiddinovich***CAMU Tibbiyot Fanlari Nomzodi (TFN)**Patologiya asoslari va sud tibbiyoti kafedrasini mudiri*

**Dolzarbligi:** Allergiya bugungi kunda juda keng tarqalib borayotgan patologiyalardan biridir uning natijasida odamda boshqa patologik jarayonlar ham avj olib ketadi.

ALLERGIYA (yun. allos — boshqa, o'zga, begona va ergon — ta'sir) — kishi organizmida tashqaridan ta'sir qiluvchi allergenlik xususiyatiga ega bo'lgan har xil yot moddalarga nisbatan paydo bo'ladigan o'ziga xos reaksiya. Allergik reaksiyaga sabab bo'ladigan omil "allergen" deb ataladi. Allergiya - immun reaktivlikning patologik shaklidir. Uning asosini organizm allergenlarining (avvalo antigenlar va gaptenlarning) qayta ta'siriga nisbatan tanlab spetsifik ortiqcha sezuvchanligini tashkil etadi. Allergiya organizmning xususiy to'qimalarining turli darajada ifodalangan shikastlanishi va odatda uning himoyaviy, moslanish (adaptiv) reaksiyalari, xullas butun mexanizmlari effektining pasayishi bilan namoyon bo'ladi. Ba'zan bunday o'zgarish begona antigenni tashuvchi chala destruksiya uchraydi yoki organizmdan eliminatsiyalanmaydi.

**ALLERGIYANING SABABLARI** Allergiya allergenlar - antigen yoki antigen bo'lmagan (gapten) tabiatli, shuningdek, ba'zi fizikaviy omillar (yuqori va past harorat, UB nurlar, ionlashtiruvchi radiatsiya va h.k. ta'sirida shakllanadi.

**ALLERGENLARNING TASNIFI VA TAVSIFI**

Kelib chiqishi va tabiatiga ko'ra:

1. Ekzogen allergenlar (ekzoallergenlar):
  - a) ovqatga bog'liq (alimantar) allergenlar, tabiati turlicha, o'simlik yoki hayvonot dunyosiga mansub;
  - b) dori vositalari yoki sun'iy mahsulotlar bo'lishi mumkin. Avvalo, antibiotiklar, vaktsinalar va h.k. Ayniqsa, nazoratsiz va maqsadga muvofiq lashtirilmagan, bemorning allergik reaksiyalarga moyilligini tekshirmasdan ishlatiladigan vositalar;
  - v) o'simlik changi allergenlari, odatda oqsillarning karbon suvlar yoki pigmentlar kompleksidan tashkil topgan. Ular ko'pincha nafas yo'llari va ko'z shilliq pardasining shikastlanishi bilan tavsiflanadigan pollinozlarni chaqiradi;
  - g) changli allergiya - uy-ro'zg'or yoki ishlab chiqarish, ko'cha va boshqa joylardagi chang murakkab tarkibga ega, unga hayvonlar, o'simliklar, zamburug'lar, hasharotlar, mikroblar, sintetik to'qimalar, plastik massalar, shuningdek, boshqa organik moddalarning qoldiqlari hamda noorganik birikmalar kiradi. Ishlab chiqarishga bog'liq bo'lgan changlar nihoyatda turlicha va o'z-o'zidan ma'lum ixtisoslikka

bog'liq, ammo ular bakteriyalar va ayniqsa, zam burug'lar bilan zararlanishi natijasida antigenlik xususiyatiga ega bo'ladi; d) epiderm alallergenlar (terining m uguzli qavat tangachalari, qushlaming patlari, hayvon terisiningbo'lakchalari va h.k.); e) ro'zg'or-kimyoviy birikmalari (turli bo'yoqlar, kir yuvish vositalari, hid yo'qotuvchilar, pardozi vositalari va h.k.); j) zardobli allergenlar (antitanalar tutuvchi hayvonlar va odam qonining preparatlari); z) infeksiyon parazitlar allergenlar (patogen va saprofit mikroorganizmlar, viruslar, zam burug'lar va h.k.); i) fizikaviy omillar (yuqori va past harorat, har xil to'lqin uzunligidagi nurlar va h. k.).


2. Endogen allergenlar (endoallergenlar, autoantigenlar) ga organizmning o'z to'qima va hujayralarining tarkibiy qismlari (oqsillar, polipeptidlar, yirik molekullari polisaxaridlar, lipopolisaxaridlar va b.).

Quyidagilar natijasida begonalik xususiyatiga ega bo'lib qolganlar kiradi: 1. Fizikaviy-kimyoviy, infeksiyon va boshqa ekzogen kelib chiqishga ega bo'lgan ta'sirlar hujayra oqsillarining denaturatsiyasini chaqiradi. Normal oqsillarning ekzogen allergenlar (gaptenlar) bilan komplekslarini hosil qiladi (gaptenlar, polilipidlar, nuklein kislotalar, ko'pchilik dorivor moddalar). Turli sabablarga ko'ra shikastlangan hujayralar, masalan gaptenlar joylashib olgan hujayralar immun tizim uchun nishonga aylanadi.

2. Tabiiy immuntolerantlikning turli sabablarga ko'ra buzilishi ba'zi a'zo va to'qimalar oqsillarini (miyelin, tireoglobulin, sperma oqsili, ko'z to'qimasi oqsili) immun tizim hujayralaridan ajratib turuvchi gistogematik to'siqlar shikastlanganda yuz beradi. Endogen allergenlar chaqiradigan allergiyaning shakllari autoallergik reaksiyalar yoki kasalliklar deb ataladi.

2010 yilda Portsmut universiteti doktori Karina Venter va uning hamkasblari tomonidan o'tkazilgan tadqiqot natijalari e'lon qilindi, unga ko'ra so'ralgan har besh kishidan biri oziq-ovqat allergiyalari bor deb da'vo qilsa, laboratoriya tekshiruvlariga ko'ra bu allergiya deb ataladigan har o'n kishidan bittasida topilgan. Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, ba'zi reaksiyalar immunitetsiz psevd-allergik mexanizmlar bilan bog'liq bo'lgan.

Biroq allergen zararli emas. Shunchaki immun tizimi bu moddaga juda sezgir bo'lib qolgan. Immunitet tizimi allergiyaga ta'sir qilganda, allergenni yo'q qilish uchun antitanalar turi immunoglobulin E (IgE) ni chiqaradi. Bu organizmda allergik reaksiyaga olib keladigan kimyoviy moddalar ishlab chiqaradi. Ushbu kimyoviy moddalardan biri gistamin deb ataladi. Gistamin mushaklarning qisqarishiga olib keladi, shu jumladan qon tomirlarining devorlarida va nafas yo'llarida ham. Gistamin shuningdek burundagi shilliq ajralishiga yordam beradi.



Gistamin (Histaminum) — gistidin aminokislota hosilasi. Biogen aminlardan biri. U hayvonlar va insonlarning turli a'zo va to'qimalarida nofaol shaklda bo'ladi. Sintezlab ham olinadi. Anafilaktik shok, yallig'lanishlar va allergik reaksiyalarda (qarang Allergiya) ko'p ajraladi. Me'da shilliq qavatidagi bezlarni qo'zg'atib, shira ajralishini kuchaytiradi; mayda qon tomirlarni kengaytirib, qon oqishini tezlatadi. Gistamin bu ham garmon, ham neyrotransmitter vazifasini bajaradi. Bu shuni anglatadiki, u bir tomondan turli organlar va to'qimalarning faoliyatini o'zgartiruvchi qon orqali oqadi, ikkinchi tomondan asab tizimining faoliyatini tartibga solish uchun neyronlar tomonidan sintezlanadi. Markaziy asab tizimida, xususan miyada, gistamin ishlab chiqarilganda neyronlar orasidagi aloqasi tartibga solishda muhim rol o'ynaydi.

Eng ko'p uchraydigan oziq-ovqat allergenlariga quyidagilar kiradi:

**Baliq va dengiz mahsulotlari.** Bu eng kuchli allergenlardan biridir. Dengiz baliqlari daryo baliqlariga qaraganda ko'proq allergen ekanligi ishoniladi. Ko'zga tashlanadigan alerjenik xususiyatlarga ega dengiz mahsulotlariga qisqichbaqasimonlar va molluskalar kiradi. Dengiz mahsulotlari allergenlari barqaror va pishirish, qayta ishlash, hazm qilish paytida parchalanmaydi. Ba'zi allergenlar hatto issiqlik bilan ishlov berish paytida bug'lanishi mumkin va baliq pishirganda havoda bo'lishi mumkin.

**Tovuq tuxumining oqsillari** eng keng tarqalgan etiologik ahamiyatga ega oziq-ovqat allergenlari qatoriga kiradi. Buning sababi, tuxumdagi oqsillar, shuningdek baliq, gistaminning chiqarilishini rag'batlantirishi mumkin. Ular orasida shuningdek, termolabile va termostabil antijenlar mavjud, allergenlar sarig'ida bo'lishi mumkin. Tuklar, kepek va parranda bilan o'zaro o'zaro ta'sirlanish kuzatilishi mumkin.

Sut. Sutning tarkibi turli xil xususiyatlarga ega bo'lgan juda ko'p turli xil oqsillarni o'z ichiga oladi, shuning uchun sut allergiyasining batafsil namoyon bo'lishi turli odamlarda farq qilishi mumkin. Ushbu allergenlar turli xil barqarorlikka ega. Ulardan ba'zilari yuqori darajada barqaror bo'lib, ularni hatto sut va sut formulalarida ham saqlash mumkin, ba'zilari uzoq vaqt qaynash va / yoki sutni achish bilan o'z xususiyatlarini yo'qotadilar.

Shunday qilib, zardobdagi albumin tanasi 60-70°C da, va kazein 120S ga qadar qizdirilganda ham allergen xususiyatini yo'qotmaydi. Boshqa sutemizuvchilarning suti ham allergenik xususiyatlarga ega emas. Kamroq ishlatilganligi sababli, ular uchun sensitizatsiya kamroq uchraydi.

1. Selderey (karafs)ning dorivorlik xususiyati eramizdan oldingi asrlarda ham ko'pchilikka ma'lum bo'lgan. Tabiblar qadimdan to bugunga qadar teridagi yaralarni tez bitirishda, tanaga quvvat berishda, [nafas qisishi](#) (astma)da va ko'krakdagi og'riqlarni qoldirib, allergiya tufayli badanga toshma toshishida seldereydan foydalanishgan.

2. Dafna bargidan 5 donasini 200ml suvda o'n daqiqa qaynatiladi va bir soat damlab qo'yiladi. So'ngra suzib, kun davomida 5-6 mahal allergik diatezni davolashda bir choy qoshiqdan ichiladi. Shu qaynatma terining qichiydigan joylariga surtiladi.

3. Yong'oq bargi yoki ittikanak o'tidan 100-150gr olib, sakkiz litr qaynoq suvda yarim soat damlab qo'yiladi. So'ngra suzib, vannaga solinadi. Suv harorati 37,5°C

daraja bo'lishi kerak. Har ikki kunda 10-15 daqiqadan vanna qabul qilinadi.

4. Allergiya kasalligida terida pufakchalar paydo bo'lsa, qichisa va qizarsa, isiriqni qaynatib, suviga cho'milish tavsiya etiladi. Buning uchun isiriq mevasi bilan bandini maydalab, qaynab turgan suvga solinadi va 2-3 daqiqa qaynatib, shu qaynatmani qo'shib cho'milish kerak.

5. Allergik holatlarda qichitqi o't (krapiva) tindirmasi foyda beradi. Bir osh qoshiq yangi qichitqi o't (yoki qurug'ining) gulini bir stakan qaynoq suvga soling. Qalin matoga o'rang, yarim soatcha tursin. Keyin dokada suzib, kuniga 4-5 mahal yarim stakandan yoki 3 mahal bir stakandan iliq holda ichasiz. Damlama har gal yangidan tayyorlanadi. Bu shifobaxsh bo'lib, badandagi qichishishlarni yo'qotadi, allergenlardan sizni himoyalaydi.

6. Ittikanak va kapalakgul o'tlaridan teng miqdorda olib, unga 1/2 nisbatda ituzum o'tidan qo'shib, choy kabi damlab ichiladi. Ittikanli vannalar bolalarning ba'zi diatez kasalliklarini hamda qo'tir va turli teri kasalliklarini davolashda yaxshi samara beradi.

7. Na'matak mevasidan va qoqio't ildizidan teng miqdorda aralashtirib, bir osh qoshig'ini kechqurun termosga solib, ustiga bir stakan qaynoq suv quyiladi. Kuniga uch mahal 1/3 stakandan 2-3oy davomida iste'mol qilinadi.

8. Allergiya xuruji boshlanmasdan oldin kuniga ikki mahal- ertalab va kechqurun ikki choy qoshiq olma sirkasi yarim stakan suv bilan ichiladi. Bu davolash usuli kasallik alomatlari yo'qolguncha qo'llanadi. Aksa urish va ko'zdan suv oqishi 4-5kunda yo'qoladi.

Har qanday davo chorasini qo'llashdan oldin shifokor bilan maslahatlashish tavsiya etiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Abu Ali ibn Sino "Tib qonunlari". Uchinchi nashr. Toshkent-2020.
2. Abu Bakr ar-Roziy " Kasalliklar tarixi". Toshkent-1994.
3. N.H.Abdullayev, H.Y.Karimov, B.O'.Irisquluv "Patologik fiziologiya" Toshkent "Yangi asr avlodi" 2008.
4. <https://uz.mazorhomes.com>